



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta'lim agentligi

_____ huzuridagi maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

_____ maktabgacha va maktab ta'limi bo'linmasidagi _____-maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruh tarbiyachisi

_____ ning "Ilk qadam" qo'uv dasturi asosida "Qizil chiroqlar" mavzida tashkillangan

MAVJULIYAT ISHLANMASI

(Iyul oyining 3-haftasi)



vab-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan
+99890-530-88-18 nomerga murojaat
qilishingiz jek456 izlab telegramga yozishingiz
yoki shu nomerdagi telegram orqali
bog'lanishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi
Katta guruhlarga iyul oyi 3-hafta "Qiziqarli
uchrashuvlar" mavzusida markazlar bo'yicha
tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda
olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Nabiyev Zokirjon plastik egasi



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA
HIYONAT QILMANG.

Guruh: Katta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Quvnoq yoz

Hafta mavzusi: Qiziqarli

uchrashuv

Maqsad: Bolalardan mehnatsevarlik va o'z mehnatidan zavqlanish xissi bilan birga ularning yirik va kichik oyoq va qo'l materikalari rivojlanadi. Bolalar jamoa bo'lib ishlash va tengdoshlari fikrini yoki ishini do'stona qo'llay biladi. Biron bir maqsadga erishish yo'lida barcha to'siqlarni birma bir sabr qanoat bilan yengib o'tadi.



Kerakli jihozlar: jismoniy muhitni yaratish uchun sport jihozlari, proektor, oshxona jihozlari, koptoklar, tabiiy ranglar bo'yoqlari, A3 formatdagi qog'ozlar.

Kutilayotgan natija: Bolalar sarguzashtli mehnatdan zavq olishadi. Ular tabiiy ranglar nimalardan qanday hosil bo'lishini bilib olishadi. Bolalarda estetik tarbiya maqsadida rangli ko'nikimlar shakillanadi. AKTga oid qisman tushuncha hosil bo'ladi.

Faoliyatning borishi: Tarbiyachi bolalar sayirga chiqishadi. Yo'lida tambalvoyning uxlab yotganini ko'rishadi. Shunda tarbiyachi tambalvoyga murojaat qiladi va uyqalib turganini ayta boshlaydi. Bolalar hayron bu kim bo'ldi ekan shunda tambalvoy o'zini uyg'otadi. **Tambal:** menmi men tambal salom **tarbiyachi:** bolalar tambalvoy to'g'ri salomlashdimi? O'zi qanday salom qiladi? **Bolalar:** assalomu aleykum **tarbiyachi:** bolalardan salom berish odobiga doir she'rlar so'rashadi.

Javohir:

Salom bergan bolaning

So'zi chiroyli

Chaqnab turgan ko'zlari

Yuzi chiroyli



Tarbiyachi: tambalvoyga nega sen buncha homushsan axvolding ham bir axvol, kiyimlaring qalin mavsumga mos emas va kiyimlaringni ham teskari kiygansan?

Tambal: Mavsum bilan nima ishim bor sovuq qotganimdan keyin hohlaganimni kiyaman hatto yuzlarimni ham yuvishga sovuqdan qo‘rqayabman

Tarbiyachi: hozir o‘lkamizda kunlar isib hamma yengil kiyimlarga o‘tgan nima deb o‘ylaysiz tambalvoy nega buncha sovuq qotayabdi? Bahor fasli haqida kimlar she‘r biladi?

Elnura:

Men bahorman bahorman

Ochilgan gul naxorman

Menla navro‘z keladi

Olam nurga to‘ladi



Tarbiyachi: tambalvoy sen erta bilan turib yuzlaringni va tishlaringni ham yuvishing kerak va sen mashqlar bajarishing kerak edi. Ana o‘shanda sen sovuq qotmaysan tanang ham qiziydi.

Tambal: ey yuvunmasam ham bo‘laveradi. Mashqlar ham qilmayman Chunki mening oyoqlarim va qo‘llarim og‘rib ketadi. Qani bolalar tambalvoyga yordam beraylik dastlab kiyimlarini tartibga solamiz so‘ngra

uni ham biz bilan birga mashqga chorlaymiz qani bolalar kim menga sog‘lom, chaqqon bo‘lishi uchun nimalar qilish kerakligi haqidagi she‘rlar aytib beradi?

Madina:

Erta bilan turaman

Tishlarimni yuvaman

Badan tarbiya qilib

Sog‘lom bola bo‘laman

Maxzuna:

Sportga qiziqaman

Kuch to‘plab chiniqaman

Har kuni erta turaman

Shamoldek yuguraman



Tarbiyachi: shundan so‘ng tarbiyachi bolalar bilan birgalikda turli mashqlar bajarishadi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarni sexrli o‘rmonchaga sayrga taklif qilishadi. O‘rmonchada sexirli ovoz chiqadi. Sexirli o‘rmonchamizga xohish qilingan sexrli o‘rmochamizda siz bir nechta to‘siqlardan o‘tishingiz kerak.

1. Bu sinovimzda siz xalqlar orasidan tanlangan xolda o‘tishingiz kerak. Tarbiyachidan bolalar oshxonasiga kelib qolishadi va hayratlanib tarbiyachidan so‘raydi bu oshxonada qanday ekanligini so‘raydi. Shunda sexrli ovoz o‘rmon bo‘ylab yongraydi.
2. Barakalla bolalar siz bu sinovdan muvoffaqiyatli o‘tdingiz ana endi siz ro‘parangizda oshxonada sexrli o‘rmonchamizning oshxonasidagi oshpaz xolaga shakillanish uchun pechenilar tayyorlashda yordam berasiz bolalardan biri bu xamir qanday tayyorlanadi? Oshpaz hola bu shirinliklar hamiri uchun 3ta tuxum, un, shaker, yog‘ kerak bo‘ladi. Ishni tuxumni chaqishdan boshlaymiz so‘ngra un va shakar yog‘ barchasini birga yaxshilab aralashtiramiz tayyor bo‘lgan hamirni kichik bo‘laklarga bo‘lib chiqamiz. (bolalar oshpaz hola bilan birgalikda kichik bo‘laklarga bo‘lib chiqadi va turli shakllar nusxasida xamirlardan shaklli pechenilar tayyorlaydi) so‘ngra bolalarga oshpaz hola sayrni davom ettirishi mumkinligini va ularning sayrlari yakuniga qadar shakilli pechenilarini pshirib qo‘yishlarini aytadi bolalar yo‘lda davom ettirishadi.

3. Bolala yo'lni davom ettirishayotganda yo'ldan ariqcha chiqadi va sexirli ovoz orqali bu ariqchadan sakrab o'tishlari aytiladi. Bolalar ariqchadan sakrab o'tishadi.

ularning ro'parasidan lavlagi, sabzi, o'sma va maxsus idishlarda ranglar doska va oq qog'ozlar paydo bo'ladi. Bolalar boshi qotgan xolda ajablanganda sexrli ovoz orqali rangni top va doskada o'z kaftlaringni joylashtir deya ovoz keladi. Bolalarga tarbiyachi tabiiy ranglar haqida troflicha va qisqacha ma'lumot berib o'tadi tarbiyachi bolalardan sabzavodlar haqida she'rlar so'rashadi

Madina:

Ko'plab vitamiga boy

Ho'p foydali maxsulot

Ovqat hazmida yordam

Meva hamda sabzavod

Elnura:

Meni sabzi deydilar

Oshga solib yeydilar

Har narsaga men oziq

Yer tagida oltin qoziq



bolalarga maxsus idishdagi ranglar kaftlarga olib kaftidagi rangni doskadagi rangga joylashtirib ta'kidlaydi. Bolalar birin-ketin bajarishadi. Tambalvoy rangni topmaydi. Bolalar uning xatosini to'g'irleydi va unga yordam berishadi. Bolalar bu sinovni ham muvoqqiyatli bajarishgan bo'lsa

ularga yo'laklar o'tish yo'laklarda maxsus ko'prikkhadan o'tishadi. Yo'lida davom ettirishadi va ularning ro'parasidan bir nechta koptoklar chiqadi. Sexrli ovoz orqali bu koptoklar orqali siz turli o'yinlar o'ynashingiz kerak.

To'p to'p bola to'plandi

Top o'ynashga shaylandi

Tala topda talash top

To'r savadga joylandi



Bolalar tambalvoy tarbiyachi bilan birgalikda koptoklarda turli o'yinlar o'ynashadi)

Tarbiyachi: bolalarni ajoyib o'yin uchun rag'batlantiradi va yo'lni davom ettirishayotganida yo'llaridan g'aroyib yo'l ro'para bo'ladi. Sexrli ovoz orqali bu yo'l haqida ma'lumot beriladi. (bu yo'ldan sizdan biroz avval ilon o'tgan bo'lib ilonning izi qolgan siz hamhuddi ilon izidek yo'lni davom etadi) tarbiyachi bolalarga ilon haqida ham qisqacha ma'lumot beradi. Tarbiyachi boshchiligida ilon izi bo'ylab harakatlanishadi.

Harkat davomida o'rmonchalada hushbo'y ifor taraladi bu ifor shaklli pechenilar iforidir. Bolalar bu iforni va oshxonaga tez yo'l olishadi va bolalar adashmaganligiga guvox bo'lishadi. Oshpaz xola ularni tutushadi o'rmonchada qanday to'siqlarga uchraganligi va qanday ko'rganligi o'rmoncha haqidagi tasurotlari bilan o'rtoqlashadi. Bolalar bu savollarga o'zlaning olgan tasurotlaridan kelib chiqib javob berishadi.

Bolalarga oshpaz xola bu pechenilar ifori va mazasi haqida so'zlashadi bolalar tatib ko'rib javob berishadi va mehmonlarga ham taklif haqida taklif ham beradi va bolalar mehmonlarga ham ulashtiradi.



Til va nutq

Mavzu: Shifokor bilan uchrashuv

Maqsad: bolalar shifokor bilan uchrashuvda shahsiy gigiena qoidalariga amal qilish lozimligini anglaydilar, sog'lom turmush tarzi, yoz faslida qaynatilmagan suvni ichmaslik, meva va sabzovotlarni yuvib istemol qilish haqidagi bilim va tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: "Tozalik - salomatlik garovi"

mavzusidagi rasmlar Faoliyatning borishi:

Shifokor va "Tozalik - salomatlik garovi" mavzusidagi rasmlarni

ko'rib chiqish.

Shifokor (hamshira)ning bolalar bilan shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, yoz faslida oftobdan saqlanish, salomatlik to'g'risida g'amxo'rlik qilish muhimligi haqida suhbat.

Suhbatni xulosalash.

Uchrashuv yakuni, shifokorga minnatdorlik bildirish.

Qo'shimcha: sog'liqni saqlash, ozodalik haqida she'r va maqollar aytish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarda shaxsiy gigienaga rioya qilish ko'nikmasi shakllanganligi.



Fan va tabiat

Mavzu: Termometr va temperaturasi

Maqsad: bolalar termometrlarning ko'rinishini va xususiyatini biladilar. U haqidagi tushunchalari boyitiladi. Uning ichidagi simob inson hayoti uchun havfli ekanligini tushunadilar.

Kerakli jihozlar: havo, suv haroratini va inson issiqlik haroratini, o'lchaydigan termometr, AKT Faoliyatning borishi:

Termometrlarning vazifalari bilan AKT orqali tanishish.

Termometrlar orqali xona harorati va inson haroratini o'lchab ko'rish.

Bolalar ishlari muhokamasiva rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: kartondan termometr yasashni taklif etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarda bilish jarayonini faollashtirish, xulosa chiqarish malakalarini mustahkamlash.

San‘at

Mavzu: Shaxsiy gigiena vositalari

Maqsad: bolalar shaxsiy gigiena vositalarining tasvirini chizadilar va ularni taqdim qilib bera oladilar.

Kerakli jihozlar: “Shaxsiy gigiena” mavzusida rasmlar, mo‘yqalam, rangli qalamlar, bo‘yoq, flomasterlar.

Faoliyatni borishi:

“Shaxsiy gigiena” mavzusidagi rasmlarni ko‘rib chiqish.

Rasm chizish uchun shaxsiy gigiena vositalarini tanlash.

Bolalarning ijodiy ishi.

Ijodiy ishlar taqdimoti va ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: salomatlik va shaxsiy gigiena vositalari haqida maqollar va badiiy adabiyot namunalari.

Alohida e‘tibor qaratiladi:

bolalarning shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish ko‘nikmasi.



Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

Mavzu: Sevimli kutubxona

Maqsad: bolalar shaxsiy tashabbusga ko‘ra o‘zining sevimli kutubxanasini qura oladilar, ularni yangi qismlar bilan to‘ldiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, yirik kubiklar jamlanmasi, konstruktor moduli, turli shakldagi qurilish ashyolari, kichik kitobchalar.

Faoliyatning borishi:

Kutubxona fotosuratlarini tomosha qilish.

Chizmani o‘rganish.

Qurish ishlarinini rejalashtirish.

Qurish-yasash ishlarini amalga oshirish.

Yasalgan “sevimli kutubxonalar” ko‘rgazmasi va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tashkilotning kichik kutubxonasiga tashrif buyurish. Alohida e‘tibor qaratiladi: kitobga, kutubxonaga mehr uyg‘otishi, yasagan kitoblarini avaylab asrash.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Ertak qahramonlari mehmonda

Maqsad: bolalar ertaklar xaqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlari kiyimlari, ertaklardan lavha tasvirlangan rasmlar, ertak qahramonlariga tegishli buyumlar (sandiq, tandir, dasturxon, xumcha, oltin tarvuz va hokazolar)

Faoliyatning borishi:

Ertakchi buvi bilan uchrashuv.

Ertakchi buvining bolalarga topshiriqlari (qaysi ertakda kampir, nevara, ayiq, quyon, bo‘ri, tulki, bo‘g‘irsoq qatnashgan? Qaysi ertakda “Ey, haloyiq, men bolalarga ulashgan oltin tarvuzni qaynatilgan edi” deb qirol aytadi? Qaysi ertakda qahramonlardan “Qaynar xumcha” ni so‘rayman”deb aytadi chol?)

Ertakchi buvining savollari (Sehrlil sandiqchamda qaysi buyumlar qaysi ertakga tegishli? (qizil qalpoqcha, oltin tarvuz, qizil qalpoq, tandir, xumcha

Bolalar javoblarini umumlashtirish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: ertaklar olamiga sayohat ko‘rgazmasi.

